

**BOLALARDA MULOQOT, TAHLILIIY FIKRLASH, IJODKORLIK,
INNOVATSIONLIK (SOFT SKILL) VA TANQIDIY FIKRLASH (IQ) NI
RIVOJLANTIRISHNING FOYDALI TOMONLARI VA UNING HAYOTDAGI
O‘RNI**

Narzullayeva Dilyora Shuhrat qizi

Kurs: 1-kurs talaba

OTM: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Yo‘nalish: Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

Ilmiy rahbar: Tokhirova Dilrabo Muzaffar qizi

O‘zDJTU o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada bolalarda muloqot madaniyati, tahliliy va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik hamda innovatsion yondashuvni shakllantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Soft skill va IQ kompetensiyalarining bola shaxsining har tomonlama kamol topishidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, bu ko‘nikmalarning rivojlanishi bolaning ijtimoiy moslashuvi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va kelgusidagi kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi asoslab beriladi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: muloqot, soft skill, tanqidiy fikrlash, tahliliy tafakkur, ijodkorlik, innovatsiya, IQ, kompetensiya.

ANNOTATION: This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing communication skills, analytical thinking, creativity, innovation (soft skills), and critical thinking (IQ) in children. It reveals the significant role of these competencies in the comprehensive development of a child’s personality. The study emphasizes how these skills influence social adaptation, independent decision-making, and future professional success. The importance of modern pedagogical approaches and innovative technologies in fostering these abilities is also highlighted.

Keywords: communication, soft skills, critical thinking, analytical thinking, creativity, innovation, IQ, competence.

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются теоретические аспекты развития коммуникативных навыков, аналитического и критического мышления, креативности и инновационности у детей. Раскрывается значение soft skills и IQ в формировании гармонично развитой личности. Подчеркивается влияние данных

способностей на социальную адаптацию ребёнка, самостоятельность мышления и профессиональное становление. Особое внимание уделяется современным педагогическим методам и инновационным технологиям.

Ключевые слова: коммуникация, soft skills, критическое мышление, аналитическое мышление, креативность, инновации, IQ.

Kirish

Hozirgi kunda bolalarga berilayotgan tarbiya va ta'lim faqat an'anaviy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki ularning muloqot qilish qobiliyati, tanqidiy va tahliliy tafakkuri, ijodkorlik va innovatsion fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy dunyoda axborot oqimi tobora ortib, texnologiyalar tez yangilanar ekan, bolalarning mustaqil fikrlashi, moslashuvchanligi va ijodiy yondashuvi eng muhim "XXI asr ko'nikmalari" sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon iqtisodiy forumining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, ish beruvchilarning 70%dan ortig'i xodimlarda analitik va tanqidiy fikrlashni eng zarur bazaviy ko'nikma deb biladi. Xuddi shunday, tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, rahbar kadrlarning 92% ijtimoiy ko'nikmalarni texnik bilimlardan kam bo'lmagan darajada muhim, deb hisoblaydi.

Soft skill – bu shaxsning muloqot, hamkorlik, emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuv kabi ko'nikmalarini ifodalovchi tushuncha bo'lsa, IQ esa aqliy faoliyat, mantiqiy fikrlash va intellektual salohiyat ko'rsatkichidir. Ushbu ikki yo'nalishning uyg'un rivojlanishi bola shaxsining to'laqonli shakllanishiga olib keladi.

Bolalik davri shaxs rivojining eng muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda tafakkur, irodaviy sifatlar va ijtimoiy kompetensiyalar poydevori yaratiladi. Shu sababli bolalarda yuqoridagi ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli dunyoning ko'plab ta'lim tizimlari AQShdan tortib Yevropagacha ijtimoiy ko'nikmalarni (IQ, kommunikativlik, jamoaviy ish) akademik bilimlar qatorida birinchi o'ringa qo'ya boshladi. O'zbekiston ta'limida ham aynan shunday tendensiya kuzatilmoqda. Kompetensiyalarga asoslangan yondashuv, interfaol darslar, munozara va loyiha asosida o'qitish – bularning barchasi bolalarda tafakkur va ijodkorlikning rivojlantirishga qaratilgan.

Asosiy qism

1. Muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi va ijtimoiy ahamiyati

Muloqot – bu shunchaki gapirish emas. Bu fikrni to'g'ri ifodalash, tinglashni bilish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish va shaxsning jamiyat bilan o'zaro aloqasini ta'minlovchi asosiy vositadir. Bolada muloqot ko'nikmasi rivojlangan bo'lsa, u o'z fikrini ochiq bayon qila

oladi, tinglash madaniyatiga ega bo‘ladi va atrofdagilar bilan samarali munosabat o‘rnatadi. Bu esa bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Muloqot rivoji quyidagi jihatlarni ta‘minlaydi:

nutq madaniyatini shakllantiradi;

emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi;

jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi;

konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rgatadi.

O‘zbekistonda yoshlarga oid o‘tkazilgan so‘rovlarnomalar ham aynan shu ko‘nikmalarning ahamiyatini tasdiqlaydi. 2020-yilda YUNICEF va hamkorlar o‘tkazgan “O‘zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar” tadqiqotida yoshlar o‘zlari uchun eng muhim deb bilgan bilim va mahoratlar so‘ralganida, eng ko‘p chet tillarni bilish va tadbirkorlik ko‘nikmalari deb hisoblashgan. Shu bilan birga, yoshlar o‘zlariga liderlik va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalar yetishmasligini alohida qayd etishgan. Demak, bugungi yosh avlod nafaqat texnik bilimlarni, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham o‘z kelajagi uchun zarur, deb bilmoqda. Bularning barchasi ta‘lim tizimi va ota-onalardan bolalarda ushbu ko‘nikmalarini rivojlantirishga jiddiy yondashuvni talab etadi.

Muloqot va ijtimoiy intellektni rivojlantirishda ota-ona va o‘qituvchilarning roli beqiyos. Bolaga nisbatan mehri va tushunuvchan munosabat, uning fikrlariga hurmat bilan quloq tutish va rag‘batlantirish orqali biz ularda ochiq muloqot qilish qobiliyatini mustahkamlaymiz. Zero, kichik bir bolaga atrofdagilar bilan til topishish, empatiya va o‘zini tuta bilishni o‘rgatish – bu kelajakda yirik bir jamoani boshqara oladigan, inqirozlarni bosiqlik va mantiq bilan yenga oladigan shaxsni tarbiyalash demakdir.

2. Tanqidiy va tahliliy tafakkur. Uning kelajakdagi o‘rni

Tanqidiy fikrlash – bu “hamma aytganiga ishonmaslik” emas, muammoni qismlarga ajratib, har bir jihatini chuqur o‘rganish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash esa olingan ma‘lumotni baholash, tekshirish va asosli xulosa chiqarish jarayonidir. Bu ko‘nikmalar bolaning mustaqil qaror qabul qilishini ta‘minlaydi. OECDning 120 000 talaba ishtirokidagi tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, talabalarining yarmidan ko‘pi tanqidiy fikrlash bo‘yicha past darajada bo‘lgan. Bu esa maktab davrida bu ko‘nikma yetarlicha shakllanmayotganini anglatadi.

Tanqidiy fikrlashga ega bola:

biror axborotni qabul qilishdan avval uni tahlil qiladi;

bir nechta nuqtai nazarni ko‘ra oladi;

muammoni turlicha hal qilish yo‘llarini izlaydi;

xulosa chiqarishga shoshilmaydi.

Ta'kidlash joizki, tanqidiy tafakkur nafaqat ilm-fanda, balki kundalik hayotda ham zarur ko'nikma. O'smirlik yoshiga yetgan bola yolg'on va dalarga ishonib qolmasligi, zararli odatlar targ'ibotiga berilmasligi yoki turli fitna nazariyalariga aldanib ketmasligi uchun ham unga atrof-muhitni tanqidiy filtdan o'tkazish qobiliyati kerak bo'ladi. Kelajakda esa, ishlab chiqarishdan tortib boshqaruv gacha har sohada muammolarni tahlil qilib, eng maqbul yechimni topa oladigan mutaxassislar talab etiladi. Aynan shuning uchun bugun dunyo bo'ylab ish beruvchilar tanqidiy va tahliliy fikrlashni xodimlardagi eng ustuvor talab sifatida tilga olishmoqda. Demak, farzandlarimizning raqobatbardosh bo'lib voyaga yetishi uchun hozirdanoq ularda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishimiz lozim.

3. Ijodkorlik va innovatsionlik – zamonaviy tafakkur asosi

Ijodkorlik bolalarning tasavvurini kengaytirib, yangicha fikrlashni rivojlantiradi. Innovatsionlik esa mavjud muammoga yangicha yechim topishga undaydi. Bu sifatlar bolaning tafakkur doirasini kengaytirib, kreativ yondashuvni shakllantiradi.

Kyung Hee Kimning "Creativity Crisis" tadqiqotida AQSh bolalarining ijodiy fikrlash darajasi 1980-yillardan buyon sekin pasayib borayotgani qayd etilgan. Bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

bolalarning erkin o'yin vaqtining kamayishi;

haddan tashqari qoidali tarbiya;

testga yo'naltirilgan ta'lim;

ekran oldida o'tkaziladigan vaqtning ortishi.

Ijodkor bolalar odatda:

Muammolarga noodatiy yechim topadi;

Tashabbuskorlik ko'rsatadi;

Mustaqil fikr bildiradi;

Yangi g'oyalar ilgari suradi.

Shunday ekan, bolalarga ijodiy erkinlik berish – ularning kreativ salohiyatini ochishning kalitidir. Britaniyalik ma'rifatparvar Ken Robinson bekorga: "Agar xato qilishga tayyor bo'lmasangiz, hech qachon biror narsaga erisha olmaysiz", deb ta'kidlamagan edi. Darhaqiqat, bolaga ba'zan xato qilib ko'rishga ham ruxsat berish, doimiy nazoratdan ozod qilib, mustaqil izlanish muhitini yaratish lozim. Sinf xonasida ijodiy muhitni shakllantirish uchun o'qituvchi noan'anaviy savollar bera olishi, turli g'oyalarga keng o'rin berishi va bolalarning tasavvurini rag'batlantirishi muhim. Ta'lim bo'yicha ekspert Robert Fisher ijodkorlikni rivojlantirish sirini quyidagicha ta'riflagan: "Ijodkorlikni rag'batlantiruvchi muhit – bu har xil fikrlar qadrlanadigan, noodatiy va qiyin savollar beriladigan, yangi bog'lanishlar izlanadigan, g'oyalar turli shakllarda – vizual, jismoniy, og'zaki tarzda ifodalanadigan, muammolarga yangicha yondashuvlar sinab ko'riladigan va har qanday

yangi g'oya ham tanqidiy baholanadigan sinf xonasidir.”. Demak, maktablarimizda bolalar savol berishdan qo'rqmaydigan, fikri uchun tanqid qilinmaydigan ijodiy muhit yaratish ustuvor vazifa bo'lmog'i kerak.

4. Soft ko'nikmalar va IQ uyg'unligi. Ularning shaxs kamolotidagi o'rni .

Soft ko'nikmalar – bu muloqot, hamkorlik, moslashuvchanlik, emotsional barqarorlik, jamoada ishlash kabi fazilatlar. IQ esa – bolaning mantiqiy fikrlashi, intellektual salohiyati, aqliy tezligi. Soft skill va IQ birgalikda rivojlanganda bolaning intellektual va ijtimoiy imkoniyatlari yanada kengayadi. Bu esa bolani kelajakda yetuk mutaxassis va ijtimoiy faol fuqaro bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

Jahon iqtisodiy forumiga ko'ra, 2025-yilning asosiy ko'nikmalari ro'yxatida tanqidiy fikrlash; ijodkorlik; moslashuvchanlik; kompleks muammo yechish - birinchi o'rinlarda turadi.

IQ darajasi va akademik yutuqlar ham inson hayotida katta rol o'ynaydi. Biroq XXI asrda IQ va texnik bilimlarning o'zi kifoya emas – ular qatorida ijodiy va tanqidiy tafakkur, moslashuvchanlik kabi jihatlari ham yelkama-yelka turishi kerakligi hayotiy misollarda o'z isbotini topmoqda. Ayni paytda texnologiyalar ko'plab oddiy ishlarini avtomatlashtirayotgan bir vaqtda, insonda faqat unga xos bo'lgan kreativlik, liderlik, tanqidiy fikr kabi qobiliyatlarga uni mashinadan ajratib turadi. Jahon iqtisodiy forumi prognozlariga ko'ra, yaqin kelajakda ish o'rinlarining katta qismi sun'iy intellekt ta'siri ostida o'zgaradi, lekin yangi sharoitda muvaffaqiyat qozonish uchun aynan ijtimoiy ko'nikmalar hal qiluvchi omil bo'ladi – shuning uchun ham ular “kelajak valyutasi” deb atalmoqda.

BOLALARDA USHBU KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLAR

1. Muammoli vaziyatlar asosida ta'lim .

Dunyo bo'ylab olib borilgan tajribalar ko'rsatishicha, bolalar turlicha fikrlashga, “nega?” va “qanday qilib?” degan savollarni berishga o'rgatilsa, ularning ijodiy yondashuvi shakllana boshlaydi. Masalan, sinfda o'qituvchi tomonidan qiziqarli muammo qo'yilib, bolalar undan mustaqil chiqish yo'lini topishga undalsa, bu jarayonda ularning tanqidiy fikrlash ko'nikmasi oshadi. Bolalar mantiqan mulohaza yuritishga, dalillarni keltirishga va xulosa qilishga o'rganadilar.

2. Rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar.

Savdo do'koni, shifokor-qabulxonasi, ekspeditsiya , kabi o'yinlarni o'ynash muloqot qilish hamda masalaga ijodiy yondashishni o'rgatadi va innovatsionlikni rivojlantiradi. Kichik yoshdagi bolalar tabiatan qiziquvchan va tasavvurga boy bo'lishadi. Shu bois, o'yin orqali o'qitish (gamifikatsiya) va san'at orqali o'qitish (masalan, tasviriy san'at, musiqa, drama) ijodiy tafakkurni o'stirishda juda samarali vositalardir. Dars jarayoniga o'yin

elementlarini joriy etish o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otib, darsni shunchaki majburiyat emas, balki zavqli va ijodiy jarayonga aylantiradi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, ta’limda gamifikatsiya qo‘llanganda o‘quvchilarning ishtiroki va motivatsiyasi oshadi, darsga qiziqqa boshlaydilar.

3. Munozara va debatlar.

Munozaralar odatda, biror mavzuda bo‘lib, davradagi barcha o‘z fikr va mulohazalarini bayon qiladi, bu orqali bolalar fikr almashishlari va o‘z dunyoqarashlarini kengaytirishlari mumkin bo‘ladi. Ushbu debatlar, asosan, fikr bildirish, dalillash, boshqani tinglashni o‘rgatadi. Bu borada O‘zbekistonda ham hali qilinadigan ishlar ko‘p: dars jarayonlarini bolalarning fikrini faollashtiradigan, ularni erkin savol-javob va munozaralarga tortadigan ko‘rinishga o‘zgartirish zarurati mavjud. Quvonarlisi shundaki, so‘nggi yillarda maktablarimizda “Munozara” to‘garaklari, “Bahs-munozara” (debat)lar yo‘lga qo‘yilmoqda, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashiga doir turli seminarlar tashkil qilinmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv asosida yaratilgan yangi darsliklarda ham mavzuni yodlatishdan ko‘ra muammoli savollar bilan ishlash va ijodiy topshiriqlarni bajarish kabi faol metodlarga ko‘proq urg‘u berilmoqda.

4. Loyiha asosida o‘qitish (PBL)

Bolalar kichik jamoalarda real muammolar ustida ishlaydi. Ijodkorlikni rivojlantirishning yana bir yo‘li – loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning, PBL) metodikasidir. Loyiha asosidagi ta’limda o‘quvchilar real hayotga yaqin muammo yoki loyiha ustida mustaqil va jamoa bo‘lib ishlaydilar. Bunday yondashuv bolalarda mustaqil izlanish, mas’uliyatni bo‘lishish, jamoada ishlash va ijodiy fikrlashni birdek talab etadi. Ko‘plab tadqiqotlar PBLning samaradorligini tasdiqlagan: loyiha bilan o‘qigan o‘quvchilar doimiy an’anaviy dars olgan tengdoshlariga qaraganda tanqidiy tafakkur va muammo yechish ko‘nikmalarida ancha yuqori natija ko‘rsatganlar. Xususan, turli eksperimentlar PBL o‘quvchilarning motivatsiyasini, muammoni hal qilish, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini oshirishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, PBL orqali olingan bilimlar bolalarning yodida uzoqroq saqlanadi va ularni turli fanlar bo‘ylab integratsiyalashga yordam beradi.

Xulosa

Bugun ta’lim olamining eng katta vazifalaridan biri – bolaga faktlarni yodlatish emas, balki uni fikrlashga, tahlil qilishga, muloqot qilishga, ijod qilishga o‘rgatishdir. Muloqot, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va innovatsionlik – bu shunchaki qo‘shimcha ko‘nikmalar emas. Bola kelajakda qanday inson bo‘lib voyaga yetishini belgilaydigan poydevordir. Komunikativ va tanqidiy tafakkuri rivojlangan bola yangi davrning har qanday yangilik va qiyinchiliklariga moslashadi, o‘qishni va o‘zini takomillashtirishni umr bo‘yi

davom ettiradi, mustaqil ravishda ham bilim izlay oladi. Bunday avlod esa jamiyatimizning ertangi taraqqiyotiga poydevor bo‘la oladi. Jahon tajribasi va ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bolalikda shakllangan kommunikatsiya, tafakkur va ijodkorlik ko‘nikmalari – inson umrboqiy muvaffaqiyatining kafolatidir.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda muloqot, tahliliy va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik hamda innovatsionlikni rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu ko‘nikmalar bolaning shaxs sifatida barkamol bo‘lib shakllanishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlaydi. Shu bois pedagoglar ta’lim jarayonida faqat bilim berishga emas, balki shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham e’tibor qaratishlari lozim. Zero, kelajak qaysi avlod qo‘lida bo‘lishini biz bugun qanday tarbiya berayotganimiz belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. UNICEF Uzbekistan Press Release (2020) – “O‘zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar” hisobotidan olingan ma’lumotlar.
3. World Economic Forum (2025) – The Future of Jobs Report 2025, 3-bo‘lim: ko‘nikmalar bo‘yicha global me’yorlar (Analitik tafakkur eng talabgir ko‘nikma sifatida qayd etilgan).
4. Kim, K.H. (2011) – The Creativity Crisis, Creativity Research Journal, 23(4). (AQSh bolalarining ijodiy fikrlash ballari 1980-yillardan boshlab pasayayotgani haqida).
5. Frontiers in Education (2024) – Gamifikatsiya bo‘yicha tadqiqotlar sharhi (o‘yin elementlari ta’limga ijobiy ta’siri).
6. Defined Learning (2023) – PBLning natijalari bo‘yicha hisobot (loyihaviy ta’lim o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi va muammo yechish ko‘nikmalarini oshirishi haqida).